

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI

*Nasiba Shodiyeva Ro'zimurod qizi*

*Navoiy viloyati Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi  
Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Mazkur maqola informatika o'qitish metodikasi va fanning o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilarni tekrihish va ularga fanning mohiyatini tushuntirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, pedagogika, o'qitish metodlari, metodik tajribalar.

**Kirish:** "Informatika o'qitish metodikasi" pedagogikaning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiyalari va shu yo'nalishdagi fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi bo'limi hisoblanadi. "Informatika va axborot texnologiyalari fanini metodikasi" quyidagimaqsadni ko'zda tutadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;

- bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;

- bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqida tassavvurlarini rivojlashtirish va hamda chuqurlashtirishdir.

**Asosiy qism:** "Informatika o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

informatika va axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida tutgan o'rni va roli,

Informatika o'qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligi, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish metodlari va texnologiyalari tarixi, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarning xususiyatlariga doir bilim; Informatika o'qitish metodikasining matematika va boshqa fanlar bilan bog'liqligi, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish metodlari, texnologiyalari, ularning nazariy asoslari, umumiy o'rta ta'limda informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning maqsadi, mazmuni va vazifalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning maqsadi, mazmuni va vazifalari, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda didaktik tamoyillar, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda uning qismlari va boblariga xos xususiyatlari, informatika

va axborot texnologiyalari bo'yicha darsdan tashqari ishlarni ko'nikma, informatika va axborot texnologiyalariga o'quvchilarda mehr uyg'ota olish ko'nikmasiga;

informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llay olish, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda ilg'or metodik tajribalarni umumlashtira olish, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha mustaqil tahsil olishga o'quvchilarni yo'llash, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish, informatika va axborot texnologiyalari darslari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yuritish, informatika va axborot texnologiyalari darslarini rejalashtirish malakasiga ega bo'lishi lozim.

**Xulosa:** Fanning o'qitilishida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'zda tutiladi. Nazariy ma'lumotlar amaliyot va ko'rgazmalilik bilan mustaxkamlangandagina, chuqur bilimga ega bo'lish mumkin. Shuning uchun dasturda amaliy-laboratoriya ishlariga katta e'tibor qaratilgan. Talabalarning "Informatika o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarini tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. U.K.Tolipov, M.Usmanboyeva. Pedagogik texnologiyalarninig tadbiiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Fan", 2006 y.
2. P.Ишмухамедов, А.Абдуқодиров, А.Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог ўқитувчилар учун амалий тавсиялар). Ўқув қўлланма. Тошкент, "Истеъдод", 2008 й.
3. А.Абдуқодиров, А.Хайтов, Шодиев Р. Аxborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'zbekiston", 2004 y.
4. А.Саторов. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'qituvchi", 2008 y.
5. Ж.Ф.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, "Ўқитувчи", 2004 й.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O.,quv qo'llanma. T.: TDPU, 2003 y.
7. Федотова Д. CASE-технология. Москва, «Издательский дом БХВ», 2003 г.
8. Цой, Маргарита и др. Создание электронных учебников. T.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2007 г.